

ABU ALI IBN SINONING MUSIQIY QARASHLARI

Samiyeva Mehriniso Azimovna

Buxoro davlat universiteti Musiqa ijrochiligi va madaniyat kafedrası o'qituvchisi

Shamsullayev Shahriyor Sunnatillo o'g'li

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik fakulteti talabasi

O'rta osiyodan chiqqan ulug' olim Ibn Sino buyuk faylasuf, tabiatshunos, mashhur tabib, shu bilan birga ajoyib musiqa nazariyachisi ham bo'lgan. Ibn sinoning "Kitabush-shifa" ("Shifo kitobi"), "Donishnoma" ("Bilim kitobi"), "Kitabun najat" ("Najot kitobi") kabi asarlarining musiqaga doir qismi va "Risalatun fi-ilmil-musiqiy" ("Musiqa ilmi haqida risola") kabi risolalari Abu Nasr Forobiy asarlari qatorida jahon musiqa fani va madaniyati tarixida alohida o'rin tutadi.

Ibn Sinoning bosh asarlaridan biri "Kitabush –shifa" falsafiy xarakterda bo'lib, unda muallifning tabiiy-ilmiy qarashlari aks ettiriladi. Muallif 13-qismda zamonasidagi tabiiy fanlarni sharhlab beradi. Shu jumladan bu yerda musiqaning nazariyasi ham yoritiladi. Asar 4 ta katta bo'limdan iborat:

1. Mantiq.
2. Fizika (Tabiiyot).
3. Aniq fanlar.
4. Metafizika.

Aniq fanlardan biri musiqadir. Ibn Sino bu yerda musiqa nazariyasini atroflicha talqin etadi. Musiqa akustikasi, tovushlar, intervallar, jins va jam'lar, ritmlar va kuylar masalasi ilmiy-nazariy jihatdan chuqur asoslab beriladi.

Uning yana bir asari "**Kitabun-najat**"ning musiqaga bag'ishlangan qismi musiqaning unsurlarini nazariy jihatdan qisqacha sharhlab beradi. Bu asarda maqomlar masalasiga kam o'rin ajratilgan.

Ibn Sinoning tojik tilida yozilgan "**Donishnoma**" nomli asarida ham musiqaning ba'zi nazariy masalalari matematikaga bag'ishlangan qismda sharh etilgan. Uning boshqa falsafiy asari-"Kitabul-ishorat" ("Qo'llanma kitob") ham musiqa ilmiy nuqtai nazaridan diqqatga sazovordir.

Ibn Sinoning "Shifo", "Najot", "Ishorat" va "Donishnoma" kabi falsafiy asarlari jahon fani va madaniyati tarixida olamshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Bu hol jahonning turli mamlakatlarida olimlarning Ibn Sino asarlari bilan kuchli qiziqishini ko'rsatuvchi dalillardan ham ko'rinib turadi.

Ibn Sinoning fikricha, falsafa fanlar majmuasidir, ya'ni butun mavjudot haqidagi fandir. U yunon olimi Aristotelning buyuk davomchisi sifatida unga ko'r-ko'rona ergashmay, ustozining mulohazalaridan o'z e'tiqodi va falsafiy tizimiga maqbul qismidagina foydalandi. Ibn Sino matematikani 4 ilmga bo'ladi: arifmetika, geometriya, astronomiya hamda musiqa. Ibn Sinoning musiqaviy qarashlari ham yunon olimlarining yo'lidan farq etadi. U musiqa bobida nazariyani amalot bilan bog'lashga va uning vositasi bilan bu masalani umumlashtirib berishga harakat etdi. Ulug' olimning musiqa madaniyati sohasidagi yuksak xizmatlaridan biri ham shu edi.

Ibn Sino musiqa haqida maxsus ilmiy-nazariy asarlar yozishbilangina cheklanmadi, balki musiqaga bag'ishlangan asarlarini meditsina kitoblarida ham aks ettirdi. Bu tasodifiy hol emas edi, albatta. Ibn Sino o'zining meditsinaga oid o'lmas asarlarida, musiqaning hissiy ta'sir kuchiga katta baho bergani holda, ruhiy kasalliklarni davolashda uni yuksak qadrladi va shifo dasturi sifatida tavsiya etdi.

Ibn Sino o'zining "Tib qonuni" kitobida bir o'rinda musiqaning ruhiy ta'sir kuchiga baho berib, go'dakning tarbiyasidagi ahamiyatini oddiygina ta'tiflaydi: "Go'dakning organizmi chiniqishi uchun ikki narsa zarur: biri uni asta qimirlatib tebratish, ikkinchisi onaning qo'shig'i (allasi). Birinchisi (bolaning) tanasiga, ikkinchisi-ruhiga tegishlidir".

Manbalarda sharh etilgan musiqaning nazariy masalalarini taqqoslab ko'rish shuni isbotlaydiki, Ibn Sino o'zining musiqa risolalarida Forobiyning musiqaviy nazariy va musiqaviy-estetik qarashlarini yanada rivojlantirdi va yuqori pog'onaga ko'tardi. Musiqashunos – mutaxassislar Ibn Sinoning jahon musiqasiga birinchi bo'lib sof soz tizimini aniqlaganligini ko'rsatib o'tdilar.

Abu Nasr Forobiy va Ibn Sino o'zlarining risolalarida Sharq musiqa nazariyasini sharhlab, ayniqsa maqom masalalarini nazariy jihatdan asoslab berdilar va ularning asarlarini bu masala o'zining klassik ta'rifini topdi. Buyuk olimlarning maqom haqidagi izchil ta'limoti bu masalaning yoritilishida; XIII-XV asrlarda yashab ijod etgan musiqa nazariyachilari asarlari mazmunini aniqlab berdi. Bu hol Urmaviy, Sheroziy, Husayniy va Jomiy asarlarida yaqqol ko'zda tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Samieva M. BUKHARA PERFORMANCE METHOD A FACTOR FOR DEVELOPING THE MORAL QUALITIES OF ADOLESCENT STUDENTS //" ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2022. – C. 191-194.
2. Samiyeva M. A., Ramazonov A. V. O 'ZBEK MUMTOZ MUSIQASI-O'QUVCHILAR QIZIQISHINI SHAKLLANTIRISH OMILI //BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMIIY JURNALI. – 2022. – T. 2. – №. 12. – C. 31-36.
3. Azimovna S. M. et al. THE BUKHARA PERFORMANCE STYLE IS A FACTOR IN THE DEVELOPMENT OF MORAL QUALITIES OF TEENAGERS //Zeta Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 1067-1071.
4. Мустафоев Б. И., Самиева М. А. БУХАРСКИЕ ДРЕВНИЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ГРУППЫ-СРЕДСТВО ОБРАЗОВАНИЯ //European Science. – 2021. – №. 2. – C. 26-28.
5. Ortiqov, E. . (2023). Musiqa Madaniyati Ta'limida Musiqiy Savodxonlik Faoliyatini Tutgan O'Rni. *International Conference on Multidimensional Research and Innovative Technological Analyses*, 106–112. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/ICMRITA/article/view/835>
6. Артыкова, Э. ., & Рузиева, З. (2022). ВЕЛИКОЕ БЛАГОСЛОВЕНИЕ – ПЕСНЯ ШАШМАКОМ. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 1(2), 22–24. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/cajei/article/view/6459>
7. E Ortikov. Historical Analysis of National Musical Heritage and Moral-Aesthetic Education in Music and Art Schools of Uzbekistan . 2023/8/20 Academic Journal Publisher <http://dspace.umsida.ac.id/handle/123456789/5948>
8. Mustafoyev B. TA'LIM ISLOHOTLARI MAZMUNIDA YOSH AVLOD MUSIQA MADANIYATI TARBIYASI //TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C. 60-66.
9. Mustafaev B. FROM THE HISTORY OF MUSIC EDUCATION AND PEDAGOGICAL SYSTEM ACTIVITY IN UZBEKISTAN IN THE 1950s-1970s //Academia Science Repository. – 2023. – T. 4. – №. 04. – C. 1007-1012
10. Мустафаев Б. "БУХОРЧА" ВА "МАВРИГИ" МУСИҚИЙ ТУРКУМЛАРИ ТАДҚИҚОТЛАРИНИНГ ТАРИХИЙ, МАЪНАВИЙ–МАЪРИФИЙ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
11. Мустафаев Б. БАРКАМОЛ АВЛОД МУСИКА МАДАНИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШДА ИСЛОҲОТЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..

12. Мустафаев Б. БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МУСИҚИЙ САВОДХОНЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЖАРАЁНИДА МАНТИҚИЙ ФИКРЛАШ ВА БАҲОЛАШГА ЎРГАТИШ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23..
13. Мустафаев Б. УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МУСИҚИЙ ТАЪЛИМ ИСЛОҲОТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2022. – Т. 23. – №. 23.
14. Kholmuradovna R. U., Obidovna R. M. Social norms, sanctions and personality //Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99). – С. 115-118.
15. Рамазонова У. Х., Сайфуллаева О. М. Развитие чувства ритма у детей //Проблемы науки. – 2021. – №. 1 (60). – С. 49-51.
16. Ramazonova U. X., Esanova M. J. An'anaviy xonandalik rivojida maqomlarning o'rni //Science and Education. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 496-501.